e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/s2q8ks05

AHOLINING IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ QATLAMI BANDLIK MASALALARI

Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich
Andijon davlat pedagogika instituti, dotsent, PhD.
e-mail: muxtarovutkir1984@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-7212-7540

Annotatsiya.
Ushbu maqolada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ish bilan ta'minlash masalalari, ularning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish hamda iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari, ishsiz yoshlar, xotin-qizlar va mehnat bozorida raqobatlashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan boshqa ijtimoiy guruhlarni bandlikka jalb etish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada kasb-hunarga o'qitish, qayta tayyorlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlashning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, aholi bandligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, mehnat bozori, ishsizlik, kambag'allikni qisqartirish, kasb-hunarga o'qitish, qayta tayyorlash, xotin-qizlar bandligi, yoshlar bandligi, nogironligi bo'lgan shaxslar, tadbirkorlik, ijtimoiy tenglik, munosib mehnat.

ТРУДОУСТРОЙСТВО СОЦИАЛЬНО УЯЗВИМЫХ СЛОЁВ НАСЕЛЕНИЯ

Мухтаров Уткиржон Муталибжанович
Андижанский государственный педагогический институт, доцент, PhD.

Аннотация.
В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения занятости социально уязвимых слоёв населения, приоритетные направления расширения их участия на рынке труда, а также повышения экономической и социальной активности. Кроме того, анализируются механизмы вовлечения в трудовую деятельность лиц с инвалидностью, членов малообеспеченных семей, безработной молодёжи, женщин и других социальных групп, испытывающих трудности в конкуренции на рынке труда. В статье обосновывается значимость обеспечения занятости населения посредством профессионального обучения, переподготовки кадров, поддержки предпринимательства, развития социального партнёрства и создания достойных условий труда.

Ключевые слова: социальная защита, занятость населения, социально уязвимые слои населения, рынок труда, безработица, сокращение бедности, профессиональное обучение, переподготовка кадров, занятость женщин, занятость молодёжи, лица с инвалидностью, предпринимательство, социальное равенство, достойный труд.

EMPLOYMENT ISSUES OF SOCIALLY VULNERABLE GROUPS OF THE POPULATION

Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich
Andijan State Pedagogical Institute, Associate Professor, PhD.

Abstract.
This article examines the issues of providing employment opportunities for socially vulnerable groups, the priority areas for expanding their participation in the labor market, and ways to enhance their economic and social activity. It also analyzes mechanisms for integrating persons with disabilities, members of low-income families, unemployed youth, women, and other social groups facing difficulties in competing in the labor market into employment. The article substantiates the importance of ensuring employment through vocational training, retraining, support for entrepreneurship, the development of social partnerships, and the creation of decent working conditions.

Keywords: social protection, employment, socially vulnerable groups, labor market, unemployment, poverty reduction, vocational training, retraining, women's employment, youth employment, persons with disabilities, entrepreneurship, social equality, decent work.

Kirish. Bugungi rivojlanayotgan dunyoda bandlik bozori iqtisodiyot bosqichlarining uzviy qismigina bo'lib qolmasdan, adolatli va jadal rivojlanishning bosh tamoyili bo'lib bormoqda. Inklyuziv jamiyat — har bir fuqaroning mehnat bozorida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, unda teng imkoniyatlar, ijtimoiy himoya va iqtisodiy barqarorlik asosiy omillar sifatida qaraladi. Inklyuziv bandlik bozori yosh xususiyati, millati, jinsi va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab ajratmasdan, har qanday insonning ishlash, daromad orttirish va shu orqali yaxshi yashashga bo'lgan tabiiy ehtiyojini albatta inobatga oladi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Mazkur uchinchi bobda mehnat bozoridagi munosabatlar shakllari, aholining kam ta'minlangan qismini har jihatdan qo'llab-quvvatlash va yangi shakllanayotgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy parametrlari atroflicha tahlil etilgan. Shuningdek, inklyuziv bozorni rivojlantirishda yuzaga chiqadigan ba'zi bir muammolar hamda ularning yechimlari ham tadqiq qilingan. Fuqarolik jamiyati taraqqiyoti mehnat sohasi samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va jamiyatdagi illat hisoblangan boqimandalik hamda kambag'allikka barham berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi jarayonda insonlar bandligini ta'minlash, ularga yuqori kasbiy malaka berish, innovatsion zamonaviy bilim va ko'nikmalardan foydalanishga chorlash e'tiborga molik omil sifatida baholanmoqda.

Texnologik taraqqiyot va raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi mehnat bozorida yangi talablarni shakllantirmoqda. Xususan, aholining nochor qatlamini o'rganish, ayniqsa, kam ta'minlangan oila farzandlarini zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shunga asosan, insonni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, boshqacha aytganda, unga investitsiya kiritish uning mehnat bozori va bandlik talablariga, zamon tamoyillariga moslashuviga olib keladi. Bu yo'l jamiyatdagi bekorchilik botqog'iga botib qolgan kishilarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini oshirish borasida e'tiborga molik omil sanaladi.

Davlat siyosatida bandlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, xususan, yolg'iz ayollar, boquvchisini yo'qotgan bolalar, qarovsiz keksalar hamda ishsiz aholini qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategiyalarni yangi bosqichga olib chiqish lozim. Qayd etilgan maqsadlarni amalga oshirishda ta'lim va ilmiy faoliyatimizda sifat ko'rsatkichlarini yuksak darajada ta'minlashga erishish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

A. Trinadsatko 2019–2020-yillardagi COVID-19 pandemiyasi sharoitida salomatligida nuqsoni mavjud insonlarning ishsizlik davridagi ruhiy holatini o'rgangan [1; 47-b]. Olimning keltirishicha, "Nogironlik ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat tomonidan o'z fuqarolariga nisbatan shakllangan jismoniy va ijtimoiy to'siqlarning oqibati bo'lib, ular jamiyatda qabul qilingan oddiy inson me'yorlariga mos kelmaydi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatga jalb etilishiga ko'maklashish, ularning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi va integratsiyalashuvi sharti sifatida davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanishi ta'kidlanadi. Mehnat bozori rivojlanish darajasi va bozorda ishtirok etuvchi kuchlar: tadbirkorlar, mehnatkashlar va davlat o'rtasida ma'lum davrda erishilgan manfaatlar balansini aks ettiruvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida vujudga kelgan" [2; 84-b].

Bizningcha, bu tamoyillar bir-birini to'ldiruvchi determinantlar bo'lib, ularning har biri mehnat bozorida alohida xususiyatni ifoda etadi. Lekin mehnat bozori boshqa bozorlardan farq qiladi. Sababi, unda tartibga solish vazifasi faqat iqtisodiy omillar bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham to'ldiriladi. Bugungi kunda bandlik bozorida ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar tahlil etilar ekan, bunda quyidagi olimlarning izlanishlarini keltirib o'tish joizdir. Misol uchun, R. J. Erenberg va R. Smit fikrlariga asosan, "Mehnat bozori faqat mehnatni xarid qiladigan va sotadiganlardan iboratdir" [3; 49-b].

METODOLOGIK QISM

Mazkur bob insonparvarlikni rivojlantirish va uning maqsadli tamoyillaridan biri bo'lgan saxovatpeshalik, mehr-oqibat va ezgulikni ilgari surish bilan birga iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari mehnat bozorining kelajakdagi tendensiyalarini aniqlash hamda ishsizlik darajasini kamaytirishga qaratilgan amaliy mexanizmlarni taklif etish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Ta'lim tizimining barcha quyi bo'g'inlari qatorida bizning oldimizga qo'yilgan vazifalar doirasida ijtimoiy mas'uliyatni to'la his qilgan holda odamlarni ishli va savodli qilish masalasi dolzarb hisoblanadi" [4; 3–4-b]. Malaka qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatdagi bandlik darajasi ham shunchalik barqaror bo'ladi.

Insonlarni ijtimoiy himoya qilish jarayoni bir kun, bir hafta yoki bir oy davom etadigan, ya'ni muvaqqat amaliyot emas, balki ularni hayot va turmush mushkulotlari sabab tushib qolgan sinovlar girdobidan xalos qilish, ularga jamiyatning boshqa vakillari kabi farovonlik, yorug' istiqbol va munosib turmush tarzini taqdim etishga yo'naltirilgan doimiy jarayon bo'lishi kerak. Prezidentimiz faoliyatining dastlabki kunlaridanoq mansabdor rahbarlar va davlat tuzilmalari keng omma bilan qanday tarzda muloqot qilishi kerakligi haqida asoslangan, yetarlicha tushunchalar berdi. Qisqa vaqt ichida xalq va davlat o'rtasidagi muloqot jarayoni so'zlardan iborat bo'lib qolmay, mamlakatdagi har bir inson turmushida o'z samarasini bermoqda. Davlat tuzilmalari bugungi kunda keng omma bilan ochiq muloqot qilishga, kishilarning orzu-armonlari va dardlarini eshitishga, "pastga tushib" ishlashga o'rgandi. Xalq va davlat o'rtasida ochiq muloqot tizimi paydo bo'ldi. OAVda so'z erkinligi yuzaga kelib, qator ilmiy suhbatlar va aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ayrim telekanallarning tanqidiy-tahliliy chiqishlari natijasida uzoq vaqtdan beri yechim kutayotgan katta-kichik muammolar hal etildi. So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ro'y berayotgan ijobiy voqealar va o'zgarishlar keng jamoatchilik nigohidan chetda qolayotgani yo'q.

Shunga qaramay, yordamga muhtoj aholiga nisbatan jamiyatda azaldan shakllanib qolgan kamsituvchi qarashlarning mavjudligi hamda ularning deyarli barchasi zamonaviy ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olinmagani, ba'zi chekka qishloqlarda hali ham turmush darajasining haminqadarligi o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini isbotlaydi.

Oldingi davrlarda moddiy yordamga muhtoj kishilar qatlamining mavjudligi tabiiy hol deb qaralgan bo'lsa, bugungi dunyo sharoitida hayotning barcha jabhalari ilg'or qarashlar asosida baholanmoqda. Endilikda uyda, maktabda, mahallada ibtidoiy qarashlar emas, balki yangicha qarashlar asosida inson turmush tarzini yaxshilash kun tartibidagi masala bo'lib turibdi. Shu o'rinda savol tug'iladi: kimlar ijtimoiy yordamga muhtoj? Kam ta'minlangan qatlamga kimlar kiradi? Bu savollarga javoban "Mehribonlik uylari"ning tarbiyalanuvchilari, chunonchi, ota-onasi uzoq vaqt xorijdan qaytmayotgan bolalar, darddan azob chekayotgan nogironligi bo'lgan insonlar, adashib jinoyat yo'liga kirgan yoshlar, boquvchisini yo'qotgan nuroniylar, ijtimoiy sog'lomlashtirishga muhtoj jazoni ijro etish muassasalaridan qaytganlar, o'sma va ruhiy

ISSN 3060-5059 (Online)

kasalliklarga yo‘liqqanlar hamda tang vaziyatdagi oilalarni keltirish mumkin.

Oydinlashadiki, ba’zilar muvaqqat ko‘makka, boshqalar esa doimiy qarovga muhtoj. Shu sababli yuzaga kelgan mushkulotlarni samarali hal etishga qaratilgan yechim topish davr talabi edi va bunday yechim topildi. Xorij tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy himoya ijtimoiy ta’minot hamda ijtimoiy faoliyatga bo‘linadi.

1. Ijtimoiy ta’minot tuzilmasi — davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan pensiya jamg‘armasi ajratadigan turli moliyaviy to‘lov tizimlarini qamrab oladi.

2. Ijtimoiy faoliyat tuzilmasi — shaxslarga individual hamda ijtimoiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishda ko‘maklashish, ularning ishga yaroqli toifasini qo‘lidan keladigan ishlar bilan band qilish va sog‘lomlashtirishga ko‘maklashuvchi tuzilma sanaladi.

Ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligini ta’minlash uchun yagona muvofiqlashtiruvchi organ faoliyati kerak bo‘lib, u ijtimoiy himoya va ijtimoiy ishni samarali amalga oshirish uchun tuman darajasidan boshlab barcha davlat tuzilmalari hamda nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Ushbu organ turli me’yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish, turli tashkilotlar tomonidan ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy ta’minot dasturining amalga oshirilishi va boshqarilishini monitoring qilish uchun mas’ul bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy himoya tizimining unumdorligini oshirish uchun yagona asosiy tuzilma kerak bo‘lib, u yuqoridagi har ikki tuzilmani o‘z ichiga qamrab olgan holda tuman darajasidan tortib davlat va nodavlat tuzilmalari bilan birgalikda uzviy faoliyat ko‘rsatishi kerak. Bu organ turli-tuman hujjatlar bazasini shakllantirib, boshqa tashkilotlarning ijtimoiy himoya sohasida olib borayotgan faoliyatini boshqarishi, tartibga solishi va kuzatishi kerak.

Professional ijtimoiy tuzilma doirasida muayyan ixtisosga ega mutaxassislarning ishlash jarayoni, yangi tuzilmalarni shakllantirish, mavjudlarini esa jahon talablari asosida baholash, xizmat turlarini ko‘paytirish, sifat darajasini yaxshilash, xizmat ko‘rsatayotgan shaxslarning malakasini oshirish kabi omillar dolzarbdir. Bu jarayon “Keys-menejment” tamoyili asosida bajarilib, bunda murojaatchining arizasi ko‘rib chiqiladi, ehtiyojmand qatlamning imkoniyatlari baholanadi. Turmush tarzi va salomatligi hisobga olinadi hamda shular asosida yo‘l xaritasi tuziladi. Ushbu xizmatlardan foydalanish ko‘lami kengayadi, ulardan foydalanish borasida qulay shakllar ishga solinadi. Ko‘zlangan maqsad muvaqqat chora-tadbir emas, balki yordamga muhtoj shaxsni tang vaziyatdan, ruhiy qiynoqdan chiqarishga qaratiladi. Bu borada jismoniy va aqliy mehnat turlari ishga yaroqli shaxslarning o‘z layoqatiga qarab taqsimlanadi.

Yuqorida biz aytib o‘tgan faoliyatni amalga oshirishda, albatta, raqobatbardosh, oqil kadrlar xizmati zarur bo‘ladi. Aholini har tomonlama ijtimoiy himoya qilishda huquq-tartibot, sog‘liqni saqlash, mahalla fuqarolar yig‘ini va boshqa turli tashkilotlar o‘zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Ahamiyatlisi shuki, mamlakatimizdagi uchta oliygohda bir necha o‘quv yili davomida tuzilma faoliyati bo‘yicha kadrlar tayyorlangan, lekin ularning hech biri davlat organlarida shtat birligi yo‘qligi uchun faoliyat ko‘rsata olmagan.

NATIJALAR

Bandlik tizimi ko‘ngildagidek ishlasa, hozirda kelajakka intilayotgan oliy o‘quv yurti bitiruvchisi diplom olgandan so‘ng ikkilanib qolmaydi va ijtimoiy himoya tizimida o‘rnak ko‘rsatib ishlashi mumkin bo‘ladi. Mutaxassislik diplomi bo‘lsa-da, tizimda ishlamayotgan shaxslarga ish o‘rnini topishda ko‘maklashish tizimda tanqidga molik jihatlar borligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda mamlakatimizga ikki toifa: ijtimoiy himoya hujjatlarini tom ma’noda mukammal yuritadigan savodli menejerlar hamda qarovchisini yo‘qotgan kimsalarga mehribonlik va qalb qo‘ri bilan qaraydigan beminnat hamshiralar kerak. Yangi O‘zbekiston sharoitida bunga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilgari yaratilgan kadrlarni tanlash siyosati hozirgi kunda nazariyadan amaliyotga o‘tib, sohada ijobiy yutuqlar ko‘zga tashlanmoqda.

Yordamga muhtoj kishilarning o‘zlari bajaradigan ish orqali farovon kelajagini belgilashi ahamiyatlidir. Ko‘pgina xizmatlar keyinchalik fuqarolik jamiyati kuchi bilan ro‘yobga chiqadi. Hukumat esa bu borada reyestr tuzadi, me’yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqadi. Himoyaga muhtoj insonlar hayotini yaxshilash uchun xususiy yakka tartibdagi tadbirkorlar, nodavlat tashkilotlar, homiylar, lozim ko‘rilganda, xalqaro donor tashkilotlarni ehtiyojmandlarni qo‘llab-quvvatlashga jalb qiladi. Asta-sekin jahondagi ko‘plab rivojlangan davlatlarda bo‘lgani kabi himoya tizimi ham o‘zgarib boradi. Bugungi kunda Qozog‘iston, Rossiya va Belarusda ijtimoiy himoya tizimida ilg‘or amaliyotlar qo‘llanilayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Masalan, tadqiqot davomidagi kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, Rossiya Federatsiyasida qarovsiz qolganlarga g‘amxo‘rlik qiladigan “Nochlejka” jamoat tashkiloti bor. Bu tashkilot uysizlarga boshpana beradi, tunlari esa bir necha oshxona bilan kelishgan holda (kafelarda bu “fudshering” dasturi deyiladi) issiq ovqat tarqatadi. “Nochlejka” xizmatchilari qarovsiz qolganlarga tibbiy ko‘rikdan o‘tishda, ish topishda, hujjat rasmiylashtirishda, vaqti kelganda o‘z oilasi bag‘riga qaytishda ko‘maklashadi. “Nochlejka” saxovatli sarmoyadorlardan ust-bosh va mablag‘ yig‘adi. Shuningdek, tashkilotning e’lon taxtasi mavjud bo‘lib, unga qidirilayotgan qarindoshlarning suratlari qo‘yiladi.

Bugungi kunga kelib, farovonlikni oshirish va jamiyatga yuk bo‘lmaslik uchun qariyalar va mehribonlik uylari tizimini isloh qilish kerakka o‘xshaydi. Ya’ni ushbu tuzilma doirasida tarbiyalanuvchilar va ishga yaroqli keksalar uchun ularning quvvati va layoqatiga bog‘liq ish o‘rinlarini tashkil qilish mumkin. Mazkur ishxonalarda qaramoqdagi keksalar to‘rt devorli xonalarda yotish, kunduzi ruhiy tushkunlikda kunni kech qilish o‘rniga o‘zaro jipslashib, fikr almashib, mehnat bilan band bo‘lishi mumkin. Aytish mumkinki, ba’zi bir qariyalar g‘ayratini yo‘qotmagan, yoshlikda yoki nafaqaga chiqquncha o‘zlari shug‘ullangan kasb-kor, mashg‘ulot va hunar ko‘nikmalarini tark etmagan bo‘ladi. Yuqorida aytilgan maroqli mehnat markazlari bugungi kunda AQSH va Shvetsiyada bor.

Bu ikki davlatda maxsus qarovga muhtoj keksalar uchun ijtimoiy xizmatchi bo‘lib, u, bir so‘z bilan aytganda, keksa va qarovsiz uy sohibiga qaraydi, parvarish qiladi, shuningdek, barcha uy yumushlarini bekamu ko‘st ado etadi. Hayotiy misollardan ma’lumki, Turkiya davlatida istiqomat qiluvchi yolg‘iz qariyalarning ko‘pchiligi befarzand emas, faqatgina ularning dilbandlari xorijiy davlatlarda ishlaydi. Bu qariyalarga ijtimoiy xizmat xodimlari, hamshiralar xizmat ko‘rsatadi.

Shuningdek, ushbu davlatlardagi volontyorlar ham bunday qariyalarning joniga oro kiradi. Rivojlangan Xitoy va Singapur davlatlarida xarajat talab qilmaydigan TAY-CHI xizmati [5; 53-b] mavjud bo‘lib, bu xizmat qariyalarni e’tibor bilan parvarishlab, hatto toyib ketishidan ham asraydi. Chunki bu hol yoshi katta odamlarning sog‘lig‘iga ancha rahna solishi mumkin.

Ahamiyat qaratilishi lozim bo‘lgan omillardan yana biri — nogironligi bo‘lgan insonlarning holatidir. Bu fikrimiz isboti sifatida ikkita misol keltiramiz. Bunday shaxslar o‘z yashash joylaridan tashqarida yoxud kasalxonalarda ko‘zga tashlanmaydi. Ya’ni keng jamoatchilik hayotiga qo‘shilish imkoniyatlari cheklangan. Taxmin qilish mumkinki, ularning ba’zilari katta ommaga ko‘rinishdan uyalsa, ikkinchi toifa uchun jismoniy va nutq imkoniyatlari cheklangan. Mana shu ikki sabab yuqoridagi holatni keltirib chiqaradi. Qator rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bo‘lgan insonlarni aholi gavjum va ko‘ngilochar joylarda ko‘plab uchratish mumkin. Bizda esa buning aksi. Bizning jamiyatimizda noto‘g‘ri stereotiplar shakllangan bo‘lib, nogironligi bo‘lgan insonlar yashaydigan ayrim oilalar bu hodisani genetik sir deb hisoblab, keng ommadan yashirib, sun’iy izolatsiyaga oladi. Natijada nogironligi bo‘lgan inson tashqi dunyodan butkul uziladi. Bundan tashqari, jamiyatimizda bunday farzandlarni parvarishlayotgan ota-onalar bola uchun ozgina yordam pulidan boshqa hech narsa olmaydi. Asosiy yuk va mas’uliyat oilada onaga tushadi. Ota bo‘lsa, har doim ham bunday bolani qabul qila olmaydi. Shu boisdan, nogironligi bo‘lgan farzandni o‘stirayotgan oilalarga insoniy ko‘mak ko‘rsatish, bandlikni ta’minlash markazlari vositasida yordam berish kerak. Bugungi kunda jamiyatimizda mana shunday yordam markazlariga yanada ehtiyoj bor. Bu masalada G‘arb mamlakatlari ancha ilgarilab ketgan. Ularda oilaga maxsus ijtimoiy ko‘makchi tayinlangan bo‘lib, u savdo-sotiq, ovqat tayyorlash va uy yumushlarida onaga madadkor bo‘ladi. Natijada ona hayotda emin-erkinroq harakat qiladi. Bunday vaziyatda ona farzandini maxsus internatlarga topshirmasdan, o‘z qo‘li bilan mehr himoyasi ostida ulg‘aytiradi.

O‘sha mamlakatlarda oilaviy tazyiqlardan saqlovchi maxsus markazlar bo‘lib, ular ruhiy tushkunlikka tushgan ayollarni himoya qiladi. Ishsizlik oqibatida kelib chiquvchi ijtimoiy noqulay vaziyat bunday bolalarni parvarishlashga imkon bermaydi. O‘zbekistonda ham yolg‘iz ayollar va ularning farzandlari uchun keng imkoniyatlar va moddiy yordam tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bunday munosabat ular va farzandlari hayotida yangi muvaffaqiyatlarga erishish hamda mehnat mahsulini yaratish uchun zamin hozirlamoqda [6; 4-b].

Taraqqiy etgan davlatlarda ijtimoiy himoya hamda palliativ ko‘mak markazlari faoliyati namunali bo‘lib, palliativ ko‘mak salomatligini tiklash imkoni yo‘q bo‘lgan kasallikka yo‘liqqan nogironligi bo‘lgan insonlarning ruhiyatini tiklashga qaratilgan. Masalan, xavfli o‘simta kasalligiga chalingan bolalar uchun to‘siqsiz ijtimoiy yordam paketi ajratiladi. Natijada bunday bemor bolalar umrining so‘nggi oylarini og‘riqsiz kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Soha mutaxassislari ma’lumotlariga tayanib aytish mumkinki, yiliga 100 mingga yaqin inson turli darajadagi onkologik xastaliklarga yo‘liqadi.

Bizningcha, bunday xizmatlarning zamonaviy usullarini O‘zbekistonda ham tatbiq etish hamda tajribalar asosida ularning milliy modelini ishlab chiqish zaruratga aylanmoqda. Buning uchun ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishi uchun barcha imkoniyatlar bor. “Davlat organlarida aniq vazifalar asosida o‘tkazilayotgan islohotlar zaminida nogironlar bandligini ta’minlashga yordam beruvchi ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning aniq rejasi hamda uslubiy islohotining aniq ‘manzarasini ko‘rish’ mumkin” [7; 3-b].

Aholining ijtimoiy yordamga ehtiyojmand qismiga hamjihatlikda madadkor bo‘lish millatimizga xos an’ana sanaladi. Bunday an’analar kishilarni bir muddao atrofida jipslashtiradi. Bahamjihat insonlar jamoasi hayot daraxtining o‘q tomiridir. Davlatimiz rahbari “Kambag‘allikni kamaytirish — bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir” [8; 4-b], deya uqtiradi.

MUHOKAMA

Iqtisodiyot tamoyillariga ko‘ra, “qashshoqlik qashshoqlikni chaqiradi”, ya’ni ishsizlik ijtimoiy himoyaga muhtojlar qatlamining ko‘payishiga olib keladi. Ushbu holatda:

- Ijtimoiy ko‘makka ehtiyoji bor qatlam ta’lim va tibbiyot uchun zarur bo‘lgan mablag‘ni topish imkoniyatiga ega emas. Buning natijasida insonning aqliy salohiyati ham pasayadi va bu pirovardida kambag‘allik hodisasiga ro‘baro‘ qiladi;
- Ishsizlikdan aziyat chekuvchilarning daromadi ozaygan sari ularning iste’mol savatchasi ham torayadi. Natijada sanoat, qishloq xo‘jaligi va turli xizmatlarga talabi kamayadi. Bunday sharoitda iqtisodiy taraqqiyot turg‘unlikda qoladi. Budjet hamda ijtimoiy himoya imkoniyatlari yo‘qqa chiqib, tanazzulga uchraydi;
- Ko‘pincha ishsiz aholi, ayniqsa, salomatlik imkoniyatlari cheklangan insonlar yuqori daromadga ega, hayoti farovon toifadan aksariyat hollarda farq qiladi. Ulardan ijodkorlik va tadbirkorlik salohiyatiga ega insonlarning shakllanishi kam kuzatiladi. Jinoyatga moyillik ham aynan kam ta’minlangan oilalar ichida ko‘p uchraydi.

Yo‘qchilik va qashshoqlikni shakllantiradigan sabablar inson kapitali taraqqiyotiga ham, iqtisodiy o‘sishga ham zarba beradi. Ijtimoiy himoya faqat mablag‘ emas, ayni chog‘da insonlarni hayot chigalliklaridan xalos qilishga qaratilganligi bilan ijobiy va katta ahamiyat kasb etadi. “Rivojlangan mamlakatlarda 1990-yillardan boshlab nafaqa ko‘rinishidagi ijtimoiy yordam oluvchilarni rasmiy tadbirkorlikka jalb qilish uchun majburiy talablar joriy qilingan” [9; 132–138]. Bunday tajriba joriy etilgan AQSH, Yangi Zelandiya, Angliya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda aholining ish bilan ta’minlanish darajasi yuqori.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, turli tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikdagi inson farovonligini faqatgina daromadlarga asoslangan baholash o‘rniga boshqa ko‘p mezonli tizimlar bilan o‘lchash kambag‘allikka qarshi kurashishning samarasini yanada oshiradi. Kambag‘allik — bu faqatgina daromadlar emas, balki turli o‘lchamli (toza ichimlik suvi, sog‘liqni saqlash, sanitariya holati, boshqa zarur xizmatlar) hayot sifatini ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

ISSN 3060-5059 (Online)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тринадцатко А. А. Состояние занятости инвалидов в России в предпандемический и пандемический периоды // Социодинамика. – 2021. – № 3. – С. 47. – URL: www.economyjournal.uz.

2. Никифирова А. А. Рынок труда: занятость и безработица. – М.: Международные отношения, 1991. – 84 с.

3. Эренберг Р. Д., Смит Р. С. Современная экономика труда: теория и государственная политика. – М.: МГУ, 1996.

4. Axmedov S. E. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining kafolati // Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining muhim omili: XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDAQI, 2016. – B. 3–4.

5. Tay Chi – ichki energiya, muvozanat va ongni rivojlantirishga qaratilgan an’anaviy Xitoy jang san’ati va mashqlar tizimi. – URL: https://rolecatcher.com/uz/skills/knowledge/health-and-welfare/health/tai-chi/.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. – 2021-yil 11-avgust, PF-6277-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. – 2021-yil 21-dekabr, PQ-57-son.

8. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 356 b.

9. Sherjanov S. O‘zbekiston aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – J. 2, № 13. – B. 132–138.